



AZIZ NESIN HIKOYALARIDAGI G'OYA

Qurbonova Manzura Shuxratulla qizi*Buxoro viloyati Jondor tumani 10-maktab o'qituvchisi*

Annotatsiya: Maqolada turk yozuvchisi ko'plab hajviy hikoya, poema va romanlar muallifi, siyosiy va ijtimoiy hajv ustasi Aziz Nesinning yumoristik xarakterdagi hikoyalari va ulardagi asosiy g'oyalar bir nechta hikoyalar orqali ochib berishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: Aziz Nesin, yozuvchi, shoir, romannavis, yumor, hazil-mutoyiba, Miad Hakimov, "Noyob mikroba", "Pulimga yarasha yer bering", "Farzand", "Nazokat-u nafosat"

Aziz Nesin turk adabiyotida turli janrlarda o'zini sinab ko'rgan va barida muvaffaqiyat cho'qqisiga chiqqan ijodkor sifatida tanilgan. Xususan, u yozuvchi, shoir, romannavis hamda hikoyanavislikda ko'plab natijalarga erisha olgan. Bundan tashqari adib ijodida yumor janridagi asarlari (hikoyalari) salmoqli o'rinni egallaydi. Aziz Nesin ayniqsa, hazil-mutoyiba va tanqid sohasidagi asarlari bilan ajralib turadi. Adabiy faoliyatini hikoya janridan boshlagan. Biroq u hazil-mutoyibaga boy va ijtimoiy tanqid mavzusidagi asarlari bilan shuhrat qozonadi. Umuman olganda, u hikoyalarida turk jamiyatining turli qatlamlarida, ijtimoiy muammolariga kinoyaviy uslubda murojaat etgan. Jumladan, uning biz uchun tanish bo'lib ulgurgan yumoristik xarakterdagi hikoyalari Miad Hakimov tarjimalari asosida bizgacha yetib kelgan. Adibning turli sohalarga murojaat tarzida yozilgan hikoyalari ham talaygina. Xususan, shifokorlar faoliyatiga doir ("Noyob mikroba", "Dardi bedavo", "Bizda vrach bo'la olasanmi?"), hayvonlar hayotiga ("Hayvonlar haqidagi hikoyalar" to'plami), adabiyotga ("Adabiyot muxlisi" "Nazokat-u nafosat", "Adabiyotsevar", "Qo'ysangizchi ustoz", "Qanday qilib romanimni chop ettirdim"), ijtimoiy-iqtisodiy muammolarga ("Xudoga shukr", "Muhim topshiriq", "Taksining eshigi", "Ustasi faranglar", "Dahshatli tush" ...) qaratilgan hikoyalari jamiyatning turli xudbin va



manmanlik cho'qqisiga chiqib olgan va o'z manfaatlari yo'lida kimlarningdir azoblanishiga sababchi bo'lib qolgan insonlar tanqid qilinadi, hajv ostiga olinadi. Adib hayvonlar qiyofasida insonlarning xato va kamchiliklarini yoki bo'lmasa ibratli tomonlarni namoyon qilib bera olgan.

Yozuvchining "Noyob mikrobn" nomli hikoyasini tahlil qilsak, hikoya bosh qahramoni o'zining professorlik kasbiy faoliyati davomida bunday noyob mikrobgga ikkinchi marta duch keladi. U buni aniqlaganidan juda xursand bo'lib ketib, turli joylardan turlicha insonlarni chaqirib, bu mikrobn haqida tushunchalar bera boshlaydi, konferensiyalar o'tkazadi, hattoki bunday noyob mikrobnni topganligi haqidagi kitob yozish rejasini tuzib chiqadi. Barchaga bu mikrobnni 48 soat ichida davolanmasa, bemorning ko'zlaridagi og'riq to'xtab so'qir bo'lib qolishligi to'g'risidagi va'zlarni aytadi-yu, lekin uning oldini olish va davo choralari amalga oshirish to'g'risida bosh qotirmaydi. Natijada bir inson ko'zlaridan ajralib bu yorug' olamni qayta ko'rish baxtidan bir umrga mosuvo bo'lib qoladi. Mazkur hikoya orqali yozuvchi o'sha davrda ham bo'lgan va hozirda ham davom etayotgan tibbiyotdagi muammolarni kulgu orqali aks ettirib, kitobxonga inson salomatligidan ko'ra nafs va pul yetakchi o'rinlarda bo'lganligini hamda tibbiy savodxonlikning yetishmasligini ko'rsatib bergan.

Aziz Nesin satira va yumor janrlarida birdek ijod qilgan. Hikoyalarining ayrimlari yarim asr o'tib bevosita turk tilidan qayta tarjima ham qilindi. Bu Aziz Nesin hajviga yangidan qiziqish uyg'onganidan dalolat beradi. Masalan yozuvchining hajviy hikoyalaridan o'zbek xalqi orasida eng mashhur "Bay Düdük" "Hushtak afandim" hikoyasi 60-yillarda taniqli tarjimon Miad Hakimov tomonidan o'girilgan bo'lsa, 2014-yilda ushbu asarga qayta qo'l urildi. O'sha yillar hikoya "Hushtak afandim" deb o'zbek tiliga o'girilgan va uni o'zbek kitobxonalari juda yaxshi kutib olishgan.

Yozuvchi "Musht ketdi", "Bezovta bo'lmang", "Sigaret qutusiasdagi arz-dodlar", "Nazokat-u nafasat" kabi hikoyalarida muhim muammolarni ko'tarib chiqadi. Bu hikoyalarning mavzusi xilma-xildir. "Nazokat-u nafasat" hikoyasi qahramoni Xolid shaharning boy, o'ziga to'q, martabali kishilarining manzilini yon daftarchasiga yozib



yuradi. Bir marta u begonalar qo'liga tushib qolganda, yon daftarchasidagi "nazokat-u nafasat" degan yozuvni o'qib qolishadi. Yana daftarchada sinfdoshi Rizo tirtiqning manzili ham bo'ladi. Rizo esa bosh direktor, begonalar esa Rizoning qo'lidagi xizmatkorlar bo'ladi. Xolidni haqorat qilib, kaltaklab, so'roqqa tutayotgan begonalar darrov o'zgarib, "Beyafandim" deb unga yumshoq muomala qila boshlaydilar. Shundan buyon u daftarchasiga martabali kishilarning manzilini yozib yuradi.

"Pulimga yarasha yer bering" hikoyasi qahramoni gazetalardan birida "Imoratsiz quruq 1624 kvadrat metrlik yer to'rt million liraga sotiladi" degan xabarni o'qib qoladi. Shundan so'ng u oladigan oylik ish haqiga yer sotib olishi mumkinligini hisoblab chiqsa, roppa-rosa 666 yil ishlashi kerak ekan. Hisoblayverib, uyqusi qochadi. Kecha-yu kunduz shu yerni olishni o'ylaydi. Nihoyat, oxiri o'ylayverib jinnixonaga tushadi. Kambag'alning boyligi – tanining sog'ligi deganlaridek, boriga, bariga shukr qilib yashashga nima yetsin?!

Aziz Nesin asarlarini o'qisangiz ham o'ylanib qolasiz, ham kulasiz. Yozuvchi "Biz u yerga bormaymiz" hikoyasida "Hali demokratiya, partiya" degan tushunchalarni yaxshi anglab yetmagan omi odamlar obrazi yaratiladi.

Yozuvchining "Farzand" nomli hikoyasida ham yuqorida ko'rib chiqqan hikoyalarimiz singari dolzarb muammo ko'tarib chiqilgan. Bir-biri bilan kelisha olmagan ota-onalarning 5 yoshli farzandi ikki o'rtada bo'lgan murosasiz tortishuvlar natijasida bevaqt dunyodan ko'z yumadi. Yozuvchi ta'biri bilan aytganda "Metin uchun bo'lgan tortishuv nihoyat tugadi. Metin janjal-suronda na boshidan va na oyog'idan ajradi, u tarvuzning ikki pallasiday bo'linib, yarmi otada, yarmi onada qoldi. Ikki o'rtadagi tortishuv uning olamdan ko'z yumishi bilan poyoniga yetdi." Hikoyani o'qigan kitobxonda bolaga nisbatan achinish, ota-onaga nisbatan esa nafratlanish hissi paydo bo'ladi. "Davlatning boshi — farzand" lekin bunga na ona va na ota amal qildi. Ularning ikkalasi ham farzand nomli ulug' ne'matning qadriga yetishmadi. Bu yerda bolaning hayoti emas, balki kim farzand tarbiyalash uchun qanchalik loyiq ekanligi masalasi ko'tariladi. Aslini olganda bunday takabbur, manman insonlar uchun farzand bir buyumdek xolos.



Adibning adabiyot bilan hamnafaslikda yaratilgan bir qator hikoyalari ham mavjud. Jumladan, "Adabiyot muxlisi", "Adabiyotsevar", "Qanday qilib romanimni chop ettirdim"

Aziz Nesinning "Dardi bedavo", "Noyob mikro" va "Bizda vrach bo'la olasanmi?" hikoyalari bevosita tibbiyot bilan aloqadorlikda yaratilgandir. Yozuvchi mazkur hikoyalarida shifokorlar faoliyatidagi bilimsizlik, befarqlik oqibatida bemorlarning bu dunyodan bevaqt ko'z yumishi yoki bo'lmasa bir umr nogiron bo'lib qolishini achchiq kulgu orqali ko'rsatib bergan.

Xulosa

Yozuvchi barcha uchun tushunarli, sodda va jamiyatdagi muammolar ustidan yengil kulish orqali yozishga harakat qilgan. Yuqorida ko'rib chiqqan hikoyalarimizda ham buning yaqqol dalilini ko'rishimiz mumkin. U oddiy so'zlar orqali ajoyib san'at asarlarini yarata olgan. Uning ijodidan paydo bo'lgan asarlar kishini ta'sirlantiradi, o'yga toldiradi, g'amgin qiladi, kuldiradi, ibrat oldirtiradi. Shunday hajviy asarlar bo'ladiki, garchi hajm jihatidan kichik bo'lsa-da, undan katta bir romandan olgan taassurotni olasiz, qahramonlarni uzoq vaqt eslab yurasiz. Aziz Nesin tasviridagi qahramon ham hech qachon esdan chiqmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. FAYZULLA BOYNAZAROV JAHON ADABIYOTI «MUSIQA» NASHRIYOTI TOSHKENT 2006
2. AZIZ NESIN ASARLARIDAGI FRAZEOLOGIZMLAR VA ULARNING TARJIMASI Pardayev Ulug'berdi Toshkent shahar Chilonzor tumanida joylashgan Hilol.edu tillarni o'qitish markazi Turk tili o'qituvchisi <https://doi.org/10.5281/zenodo.7231901>
3. YAXSHIDAN BOG' QOLUR (Miad Hakimovni Aziz Nesin hikoyalarini turk tildan o'zbek tiliga qilgan tarjimalari misolida) <https://doi.org/10.5281/zenodo.7455051> Shoxrullo QURBONMURATOV, TDSHU 2-kurs magistranti. Toshkent, O'zbekiston. Tel: +99890 326 69 26; E-mail: shoxrulloqurbonmurodov@gmail.com



4. AZIZ NESIN HIKOYALARI POETIKASI Mo‘sinjonova Oyjahon G‘ayratjon qizi FarDU o‘zbek tili yo‘nalishi 3-bosqich talabasi Maxmidjonov Shoxruxbek FarDU o‘qtuvchisi
5. Aziz Nesin Hajviy hikoyalar roman G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti Toshkent 1978 www.ziyouz.com kutubxonasi
6. AZIZ NESIN HIKOYALARIDA JAMIYAT ILLATLARI TASVIRI Aldenova N.G‘., II Pediatriya va tibbiy biologiya fakulteti, Pediatriya yo‘nalishi 210 guruh Ilmiy rahbari: katta o‘qituvchi Mexmonova N.U. ToshPTI, O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası
7. www.google.com.tr.
8. www.ziyouz.
9. www.aim.uz
10. www.turkedebiyati.